SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

QIZILQUMDA YIRIK SANOAT KORXONALARNING TASHKIL TOPISHI VA IQTISODIY HAYOTGA TA'SIR

Jalilov Mirsaid Bektosh o'g'li

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi t.f.f.d (PhD)
https://orcid.org/0009-0003-2938-161X

Annotatsiya
Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot drayverlaridan biri bo lgan Navoiy viloyati cho'l hududlarida joylashgan yirik sanoat zonalari, ularning paydo bo`lish tarixi, ularda faoliyat yuritayotgan tarmoqlar va ishchilarga yaratib berilgan sharoitlar aks ettirilgan. Shuningdek tatqiqotimizda Navoiy kon metallurgiya kombinati bilan xalqaro aloqalar, Navoiy uran davlat unitary korxonasining kechagi va bugungi kundagi faoliyati, Qizilqum fasforit zavodining tavsifi batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar
Qizilqum, geology, ekspeditsiya, trest, Muruntov, oltin, kumush, uran, fosforid, eksport, import, mashinasozlik zavodi, gidrametallurgiya.

KIRISH

XX asrning 30 yillarida geolog akademiklar Aleksandr Fresman va Dmitriy Sherbakovlar Qizilqumga maxsus ekspeditsiya uyutirishadi. Umuman, rossiyalik geologlari Qizilqumdagi oltin konlarini qidirib topish uchun 50 yildan ortiq vaqt sarflashadi. Noyob metall konlarini qidirib topish va ulardan foydalanish muammolarini xal qilish ishlarida markaziy ilmiy muassasalar faol ishtirok etdilar. Aynan XX asrning 30-yillari boshida "O'zbekoltinnoyobmet" tresti tashkil etildi.

O'zbekistonda ikkinchi jahon urushi (1939-1945-y.y.) yillarida oltin konlarini qidirish davom ettirildi. Qizilqum oltinlari haqidagi ma'lumotlar kengaytirilib, to'ldirib borildi. Geologik qidiruvning turli idoralarga bo'ysunishi ham ishni ortga surib keldi. 1957-yilga kelib, Bosh geologik boshqarma tuzilgach, bu borada burilish yuz berdi. Boshqarmaga o'zbek olimi Habib To'laganov rahbar etib tayinlandi. Qizilqumda oltin konlarini topilishida asosiy xizmatni akademik Habib Abdullayev va geologiya fanlari doktori Ibrohim Hamraboyevlar bajardilar. Ular kon qidiruv uslubiyotini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Xullas, 1958-yilda Muruntov tog'i yaqinida oltin konlarini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Muruntovda qisqa muddatlarda yuqori o'lchamli ulkan zaxiraning topilishi,

o‘nlab oltin konlarining ochilishi, respublikada yangi texnologiyalarga asoslangan industrial sohani vujudga keltirdi. Markaz rahbariyati O‘zbekistonni paxta tayyorlash obyekti deb tan olgan bir paytda, ularni yangi bir texnologik jarayonlar talab etiladigan sohaga jalb etish murakkab bo‘lgan bir sharoitda tashkil etildi. Qolaversa, oltin qazib olishning kon usuli bu davrda amalda bo‘lmagan tajribalardan biri bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning 60-70 yillarda, ya’ni O‘zbekistonning birinchi rahbari lavozimida bo‘lgan Sharof Rashidovning tashabbusi va harakatlari bilan Respublikada yirik oltin qazib ishlab chiqarish sanoati yaratildi.[1] Oltinni qayta ishlab chiqarish fabrikalari, oltin saralash kombinatlari, shuningdek, mis rudasini qayta ishlash kombinatlari foydalanishga topshirildi.[2]

Shu bilan birga, Respublikada jahon andazalariga javob beradigan yuqori sifatli oltin olindi. Lekin, bu boyliklar to‘laligicha Markazga olib ketilar, O‘zbekistonga esa hech qanday nafi tegmas edi. O‘zbekiston o‘z zaminidan olinadigan tabiiy boyliklarning xo‘jayini emasdi va uning ne’matlaridan mustaqil foydalana olmasdi. O‘zbekistonning hayotiy muhim tarmoqlari va yirik korxonalarining aksariyat qismi, shu jumladan, rangli metallurgiya korxonalari bevosita ittifoq vazirliklariga bo‘ysunardi. Oltin, uran, rangli metallar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va tashib ketish bilan markaziy organlar O‘zbekiston rahbar organlarining roziligisiz va ularning nazoratisiz o‘zlari shug‘ullanishar va tasarruf qilishardi. Olinadigan foydaning arzimagan ozgina qismigina nomiga respublika budjetiga o‘tkazilardi.

O‘zbekistonlik geologlar Markaz idoralariga SSSRda eng yirik oltin zaxiralari topilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berishiga qaramasdan, Moskvalik rahbarlar bunga e’tibor qaratmaydi. Bunday vaziyatda Sharof Rashidov O‘zbekistonda oltin qazib olish konlarini ochish ahamiyatini Davlat reja qo‘mitasi mutaxassislari, MK mas’ul xodimlari, Ministrlar kengashi, Zaxiralar bo‘yicha Davlat Komissiyasi Geologiya vazirligi bilan bahs-munozaraga kirishadi, o‘z fikrini asoslashga, ularni ishontirishga harakat qiladi. SSSR rangli metallar vazirligi rahbari P.F.Lomako bilan munozaralar natija bermagach, SSSR mashinasozlik rahbari Slavskiy Yefim Pavlovichni o‘z maqsadlariga tortadi va uning tashabbusi bilan “Muruntov” masalasi KPSS MK byurosi muhokamasiga kiritiladi. Natijada, 1967-yili L.I.Brejnev va A.N.Kosiginning imzosi bilan “Muruntov” oltin kon korxonasi ochish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi.[3]

METODOLOGIYA

1969-yil 21-iyulda “Muruntov” oltin qazib olish korxonasi qurilishining tugallanganligi to‘g‘risida ma’lumot berildi.[4] Shu yili Zarafshonda oltinni qayta ishlaydigan zavodni ishga tushirish va uni birinchi oltin quymani olishda Sharof Rashidov shaxsan ishtirok etgan.[5] Shunday qilib, dastlabki quvvati yiliga 5 million tonna ruda qazib chiqarishga ixtisoslashgan oltin koni korxonasi ish boshladi. Izlanishlar natijasida Qoraqo‘ton, Bichanzor, Pirmurob, G‘o‘saksoy, so‘ngra Ko‘chbuloq, Muruntov, Chormiton, Marjonbuloq, Kauldi, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965-yilda Metallurgiya vazirligiga bo‘ysinuvchi “O‘zbekoltin” birlashmasi va boshqa oltin qazib olish korxonalari tashkil etildi.

1967-1969-yillarda birinchi ruda, to‘qqiz qavatli binolar, maktab, bog‘cha, madaniy-maishiy muassasalar, aeroport, temir yo‘l qurilishi, Amudaryo suvlarining keltirilishi va

eng yuqori ko‘rsatgichdagi 9999 raqamli probali birinchi tonna oltinning quyilishi muhim voqelik bo‘ldi.

2011-yilga kelib esa, “Muruntov” koni jahonda quvvati bo‘yicha yagona korxonaga aylandi. Unumdorligi 3000 tonna, qiyalik burchagi 37 gradus, kutarish balandligi 279 metr bo‘lgan “KNK-270” qiya konveyerining ishga tushirilishi zaxiralarni ochishi bo‘yicha kon ishlarini jadallashtirdi va iqtisodiy jihatdan samaradorlik natijasida chuqurlikni 950 metrgacha yetkazish imkonini berdi.[5]

Xulosa qilib aytganda Qizilqum bag‘ridagi bebaho tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish maqsadida Navoiy kon-metallurgiya kombinati bunyod etildi. O‘z faoliyatini Qizilqum cho‘llaridan boshlagan ushbu korxona ulkan zamonaviy sanoat majmuasiga aylandi. Bugungi kunga kelib korxona 100 ga yaqin xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilmoqda va 1993-yildan boshlab London oltin quymalari bozori Assosatsiyasiga a’zodir.[6] Shu tariqa tanqidchilarning “Muruntovda oltin zaxiralari yo‘q”, degan bashoratlari amalda isbotini topmaydi. Korxona sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1958-yil 11-martdagi Qaroriga asosan tashkil etildi. Shunday qilib, Qizilqum cho‘li markazida oltin qazib olish korxonasi vujudga keladi. O‘tgan davr oralig‘ida geologlar oltin zaxiralarini ko‘pligini yana bir bor isbotlab, ruda olish rejasini ikki baravarga - 10 mln tonnaga oshirishga erishadilar. Bu yerda keyinchalik yiliga 18 mln tonna ruda va undan 50 tonna oltin olishga erishildi. 1967-yil 14-mayda 2-gidrometallurgiya zavodi qurilishi boshlandi va birinchi marta 1969-yil 21-iyul kuni tozalangan sof oltin olishga erishildi.[7] Bu mahsulot 11 kilogramm 820 gramm vaznga ega edi. 1973-yil bu oltinga davlat belgisi berildi.[8]

Bu ulkan ishlar natijasida O‘zbekiston oltin qazib olish va uning sifati bo‘yicha dunyoda yetakchi davlatlar qatoriga kirdi. Muruntov, Uchquduq, Zarafshon oltin konlari ochilib, O‘zbekiston oltini dunyoga tanildi.[9] 1998-yili Tokio (Yaponiya) birjasi korxonada ishlab chiqilgan bu oltinni etalon, deb e’tirof etdi. O‘zbekiston tamg‘asi shubhalanish va tekshirishga ehtiyoj bo‘lmagan eng oliy sifat tariqasida dunyoda tan olingan.

NATIJALAR

1995-yilda Ko‘kpatas va Dauvgiztov sulfid ruda konlari bazasida girometallurgiya zavodi barpo etildi. Yangi zamonaviy texnologiyalar asosidagi “Bioks” kompleksining ishga tushirilishi kombinat mahsulotdorligini yanada oshirishga xizmat qildi.[10]

Navoiy kon-metallurgiya kombinati 2009-yilda 286591,2 mln. so‘mlik, 2011-yilda 429777,3 mln.so‘mlik mahsulotini xorijga eksport qilgandi.[11] 2021-yilga kelib bu ko‘rsatgich, 2,5 mlrd dollarga yetgan. Iqtisodiy ko‘rsatgichlar tahlili korxonaning eksport salohiyati yildan-yilga o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. 2022-yil korxona tomonidan 56,6 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. 2021-yil bilan qiyoslaganda 106,2 foizga teng bo‘lib jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida 4-o‘rinni egallagan.[12] Shuningdek, Investitsiya dasturi doirasida 486 millon dollarlik mablag‘ o‘zlashtirilib, 2,1 mingga yaqin ish o‘rni yaratildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 554,6 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Investitsion dasturlar doirasida 2022-yilda Tomdi tumani hududidagi “Balpantog‘” va “Tomdibuloq” konlarida qazib olish ishlari boshlandi. “Tomdibuloq” konini 2-gidrometallurgiya zavodi bilan bog‘lovchi 35 kilometrlik temir yo‘l liniyasi qurib bitkazildi.[13] Navoiy kon-metallurgiya kombinatining shakllanishi va taraqqiyoti quyidagi xususiyatlar bilan ajarlib turadi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining yerosti qazilma boyliklarni o‘zlashtirgan cho‘ldagi birinchi sanoat korxonasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, NKMK mustaqillik yillarida mamlakat oltin zaxirasining asosiy ta’minotchisiga aylandi.

Uchinchidan, Mustaqillik yillarida NKMK sanoat korxonalarida zamonaviy mahalliy ishchi kadrlar sinfi yuzaga keldi va bu sohada yangi avlod sulolasi shakllandi.

To‘rtinchidan, Korxona yonida uning atrofida bir necha o‘nlab tarmoq sanoat korxonlari, klaster xo‘jaliklari yuzaga keldi.

Beshinchidan, Respublikamizdagi zamonaviy shaharsozlik talablariga javob beradigan, baynalminal, toza va ozoda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod, Muruntov kabi shaharlar paydo bo‘ldi.

Oltinchidan, Navoiy shahrida kon - metallurgiya sanoati ilmiy laboratoriyasi shakllandi. Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Navoiy konchilik instituti 2022-yil 31-martdagi PQ-186-sonli qaroriga asosan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti etib qayta tashkil etildi.[14] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-iyundagi PQ-3059-sonli Qaroriga binoan[15] tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo‘limida olib borilayotgan ishlar natijasida qo‘lga kiritilayotgan innovatsion yutuqlar, sohada qo‘llanilayotgan murakkab texnologik jarayonlar ishlanmalar, xomashyoni qayta ishlash uslublarini takomillashtirib bormoqda.

Yettinchidan, korxona bo‘linmalari joylashgan maskanlarda nafaqat ishchilar, balki barcha aholi ijtimoiy himoyasi doimiy, mustahkam tizim sifatida qaror topdi.

O‘zbekiston taraqqiyotidagi keyingi tub o‘zgarishlar ishga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini 2017-2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Bu esa korxona rivojlanishi uchun yangi istiqbollarni ochib berdi. Dastur doirasida mazkur yillarda umumiy qiymati 1,9 milliard dollar bo‘lgan 19 ta yirik investitsion loyiha ishga tushirilib, 14 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Buning hisobiga korxonada ishlab chiqarish hajmi 2017 yilga nisbatan 21 foizga kumush ishlab chiqarish hajmi 46 foizga oshirildi. O‘zbekiston iqtisodini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, odamlar turmush farovonligini oshirishga qaratilgan mazkur dastur doirasida “Auminzo-Amantoy” konini qurilishi va uning bazasida 5-gidrometallurgiya zavodining barpo etilishi, oltinni uyumda ishqorlash sexi konida texnogen chiqindilarni qayta ishlash kompleksini qurish, “Muruntov” koni 5-navbatini ishga tushirish, 3-gidrometallurgiya zavodida murakkab tarkibli rudalardan oltin ajratib olish texnologiyasini takomillashtirsh kabi muhim loyihalar amalga oshirildi.[16]

Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘zining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirish davomida juda ko‘plab sohalarda islohotlar olib borildi. Jumladan, Respublika uran sanoati tarmog‘i taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. ta’bir joiz bo‘lsa, 2020-yilda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarini joriy etish, bozor mexanizmlariga o‘tish, raqobatbardoshlikni oshirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi istiqbolli konlarni o‘zlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4629-sonli qarori qabul qilindi.[17]

Qizilqum hududida tabiiy uran va nodir metallarni qazib olish va qayta ishlashga ixtisoslashgan “Navoiuran” davlat korxonasi 2022-yil yanvar oyida o‘z faoliyatini boshladi. Korxona tabiiy uran qazib olish va uran oksidini eksport qiluvchi O‘zbekistondagi yagona korxona hisoblanadi. Jahon yadro assotsiatsiyasining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra uran qazib olish bo‘yicha O‘zbekiston yetakchi davlatlardan biri bo‘lib, zaxiralari bo‘yicha 11-o‘rinni, uran qazib olish bo‘yicha 5-o‘rinni egallaydi.[18]

O‘zbekistonda uran sanoatining rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1930-yilda Qizilqum zaminidagi uranning minerallashuvi haqidagi birinchi ma’lumotlar qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin. Qizilqum mintaqasidagi Auminzatovda uran borligi haqidagi dastlabki ma’lumotlar geolog Y.M. Golubkova tomonidan qayd etilgan. 1931-yilda A.F. Sosedko Tomditov va Bukantov tog‘laridagi ma`danlarda uranning ko‘pligini aniqlaydi.[19]

MUHOKAMA

1940-yildan boshlab O‘zbek geologiya boshqarmasi tomonidan Qizilqumda keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib boriladi va uning natijasida geologik, gidrogeologik va geomorfologik xaritalar tuziladi.[20] 1952-yilda geologlar Markaziy Qizilqumda Uchquduq uran konini aniqladilar va o‘zlashtirish ishlari boshlab yuborildi.

Ma’lumki, dastlab markaziy Qizilqum hududida uran konlarini o‘zlashtirish 1958-yilda Uchquduq konida ochiq va yer ostidan qazib olish yo‘li bilan boshlangan. Geolog va geotexnolog mutaxassislarning bir necha yillik izlanishlari va ilmiy dalillari natijasida Uchquduq uranining fizik-kimyoviy xususiyati o‘ziga xosligi, texnik tuzilishi bilan boshqa uran ma`dani va boshqa konlaridan ajralib turishi aniqlanadi. 1963-yilda hozirgi Uchquduq tumani hududida tabiiy uran konlari o‘zlashtirilib, uran ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.[21] Dastlab, uran mahsulotini yer qa`ridan qazib olishda ochiq usul hamda (shaxta) kombinatsiyalangan usuli tanlanib, 11 ta karer va 14 ta shaxtada ishlar boshlandi.

1967-yilga kelib esa uranni yer ostida eritmaga o‘tkazish usuli bilan qazib olishning yangi texnologiyasi yaratildi. Keyinchalik sohaning yanada rivojlanishi natijasida, vodorodli qumtosh konlarida yer ostida ishqorlash usuli joriy etildi. Birinchi bor uranni havoli-to‘yingan qatlam suvlari bilan eritishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.[22] 1994-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida barcha uran faqat shu yo‘l bilan qazib olina boshladi.

1995-yilda ishlab chiqarishning past rentabelligi sababli oxirgi uran konlari va karerlari yopildi va shundan beri uran qazib olish butunlay tejamkorroq va ekologik talablarga javob beruvchi burg‘ilash usuli bilan qazib olinmoqda. Korxonaga xalqaro standartlarga muvofiq energiya samaradorligi va ekologik xavfsizlik choralarini ta’minlagan holda foydalanishda bo‘lgan tabiiy uran konlarini ishlatish, uran konlarida mavjud noyob va nodir metallarni qazib olish, qayta ishlash va uran oksidini eksport qilish vazifasi qo‘yildi. 2023-yilda “CERT INTERNATIONAL” Xalqaro sertifikatlash tashkiloti tomonida “Navoiyuran” davlat korxonasi ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 talablariga muvofiq Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi xalqaro sertifikati berildi.[23]

“Navoiyuran” davlat korxonasi quyidagi yo‘nalishlarda o‘z faoliyatini yuritadi:

1. Tabiiy uranni qazib olish va uni U308 azot oksidigacha qayta ishlash;
2. U308 uran oksidini eksport qilish;

3. Yer ostida ishqorlash usulida qazib olingan eritmalaridan reniyni ajratib olish bilan AR-0 markali NH4ReO4 ammoniy perrenati tayyor mahsulotini ishlab chiqarish;

4. O‘zbekistonning ichki va korxonaning o‘z ehtiyoji uchun sulfat kislota ishlab chiqarish;

5. “Navoiuran” DK va “NKMK” AJ ehtiyojlari uchun polietilen va polivinilxloriddan quvur mahsulotlari ishlab chiqarish.

Hozirgi kunda “Navoiyuran” davlat korxonasi barqaror va jadal rivojlanayotgan subyekt bo‘lib, o‘z mahsulotini 100 foizini eksportga yo‘naltiradi. Uning asosiy ishlab chiqarish mahsuloti tabiiy uran bo‘lib, “Zafarobod” kon boshqarmasi, “Uchquduq” va “Nurobod” ishlab chiqarish maydonlarida joylashgan 20 ta tabiiy uran koni hamda bu konlarni o‘zida birlashtirgan 6 geotexnologik konlar faoliyat olib boradi. “Navoiyuran”da 550 millon dollarlik 11 ta loyihani amalga oshirish orqali uran zaxiralarini 67 ming tonnadan 100 ming tonnaga yetkaziladi.[24]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “Navoiyuran”DKda 2022-2030-yillar davomida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 319-sonli[25] qarori doirasida uran xomashyo bazasini barqaror rivojlantirish, uni qazib chiqarish va qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish, sohani transformatsiya qilish hamda unga investitsiyalarni va zamonaviy texnologiyalar jalb etilmoqda. Korxona Navoiy kon-metallurgiya kombinatini isloh qilish natijasida 2022-yilda yangi tuzilma sifatida tashkil etilgan bo‘lsa-da, o‘tgan qisqa vaqt mobaynida xalqaro maydonda ham e’tirofga sazovor bo‘ldi. Shu davr mobaynida korxonada 20 dan ortiq investitsiya loyihalari amalga oshirilib, ushbu maqsad yo‘lida 136 mln. dollardan ziyod mablag‘ o‘zlashtirildi.[26]

Xususan, 2022-yilning noyabr oyida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, “Navoiyuran” davlat korxonasi hamda Fransiyaning “Orano Mining” kompaniyasi o‘rtasida uran qazib olish va qayta ishlash sohasida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha uch tomonlama Strategik hamkorlik bo‘yicha kelishuv imzolandi va uranning ilk uran chalaoksidi mahsulotini ishlab chiqarish bo‘yicha jami 500 millon yevrogacha investitsiya kiritishga kelishilgan.[27]

Foydali qazilmalar va ularni ishlab chiqarish, konchilik sanoatining rivojlanishi, Qizilqum mintaqasida muttasil va keng qamrovli qurilishlar olib borilishi, mineral xomashyolarni qazib olish jarayonida cho‘lda noyob ishlab chiqarish majmuyi, ko‘p sonli konlar, shaxtalar vujudga keldi. Qizilqum cho‘lida vujudga kelgan yana bir ana shunday korxonalardan fosforit zavodi hisoblanadi. Asriy kengliklar bag‘rida fosforit ma`danining katta zaxirasi mavjudligi sobiq ittifoq davrida aniqlangan bo‘lsa-da, faqat mustaqillik yillaridagina uni o‘zlashtirishga kirishildi. Bu o‘z navbatida Qizilqum fosforit kombinatini bunyod etishni taqozo etdi. Qizilqumda joylashgan Jeroy-Sardara fosforit koni zaxirasi 303,6 million tonna ruda, 57,5 million tonna fosfor besh oksidini tashkil etadi.[28]

1996-yilda Qizilqumda fosforit kombinati qurilishi boshlangan edi. Bu yerga Respublikamizning 14 ta qurilish tashkilotidan 200 nafardan ortiq mutaxassis jalb etildi. Qisqa muddat ichida korxona qurib bitkazildi. Har biri 700 tonnadan sig‘imga ega bo‘lgan 6 ta agregat o‘rnatildi. Shvetsiyaning “Svedola” firmasidan keltirilgan texnologik asbob-uskunalar o‘rnatilib, korxonaning birinchi navbati ishga tushirildi.

O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan Qizilqum fosforit zavodini qurilishi yakunlash Navoiy kon-metallurgiya kombinat zimmasiga yuklatildi.1998-yilga kelib Qiziqum fosforit majmuasi qurildi va foydalanishga topshirildi. Natijada, fosforit xomashyo qazib olinish va undan Respublikamizning kimyo sohasida mineral o‘g‘itlarga qayta ishlanadigan fosfor konsentratini ishlab chiqarish muhim yo‘nalishlardan biriga aylandi.[29] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-mayidagi “Fosforit xom ashyosi ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Qizilqum fosforit kompleksining qurilib, ishga tushirildi. Bu esa yuvilgan, pishirilgan fosforit konsentratini ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatni defrli ikki barobarga - bir yilda 400 ming tonnadan 716 ming tonnagacha oshirish imkonini berdi va taqqoslaganda 1998-yilga nisbatan deyarli 10 barobarga ortdi.[30]

2001-yilning avgust oyidan kuydirilgan fosforit konsentratini ishlab chiqara boshladi. Korxonada ishlab chiqilgan mahsulot Samarkand kimyo-zavodi xamda Olmaliq fosfor zavodlariga yetkazib berildi. Shuningdek, Qo‘qon superfosfat zavodi ham mahsulot bilan ta’minlab kelmoqda. Korxonaning ishga tushirilishi quyidagilarning rivojlanishiga turtki beradi.

Birinchidan, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblangan. Qishloq xo‘jaligida fosfor o‘g‘itlariga doim ham ehtiyoj katta bo‘lgan. Bundan kelib chiqib, zamon va ekologik talablariga mos keladigan mahsulot ishlab chiqarish va ularning tannarxi arzon, xo‘jaliklar sotib olish darajasida bo‘lishini ta’minlash.

Ikkinchidan, kimyo zavodlari uchun mahsulot ishlab chiqarish. Ularga tarkibida fosfor moddasi ancha yuqori bo‘lgan xom-ashyoga bo‘lgan talab o‘sib bormoqda.

Uchinchidan, xalqaro andozalarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish.

Navoiy fosforit zavodining ishga tushirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, qishloq-xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qizilqum fosforit majmuasi qurilishi jarayonida va olib borilgan izlanishlar natijasida mazkur havzadan ko‘plab fosforit rudali konlari borligi aniqlandi. Ularga Jeroy, Quruqquduq, Oydinbuloq, Aznek, Oyoqquduq, Toshquduq kabi konlarni misol qilish mumkin. Bu zaxiralarning kelajakda samarali foydalanilsa, iqtisodiy daromad bundanda salohiyatli bo‘ladi [31].

Xullas, Qizilqumda ko‘p miqdorda oltin, uran, fosfor, mis, kumush konlarining katta hajimda geologik qidiruvlar asosida topilishi, bu zaminda O‘zbekiston kon-metalallurgiya sanoatiga asos solinishida muhim omil bo‘ldi. 1960-yillarda viloyat hududida kon-metallurgiya kombinatining vujudga kelishi (1965-yil), “Navoiyuran” davlat korxonasi, fosforit zavodi kabilar ish boshlashi (1967-yil) Respublika sanoat salohiyatini oshirdi. Mahsulot ishlab chiqarish korxonolarda yildan yilga oshdi, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalar kirib keldi. Navoiy konchilik instituti va uning bazasida tashkil etilgan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti (2022-yil 31-mart) Qizilqum konlarini o‘zlashtirish, kon-metallurgiya kombinati AJ va “Navoiyuran” davlat korxonasi va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini zamonaviy oliy ma’lumotli mutaxassislar bilan ta’minlashning asosiy bazasi bo‘lib kelmoqda.

XULOSA

XX asr 50 - yillarida olib borilgan geologik qidiruv ekspeditsiya natijalariga ko‘ra Qizlqum sahrosidada katta miqdordagi oltin, uran, fosforit kabi konlarning zaxiralari topildi. Ayniqsa, Muruntovdan yuqori sifatli oltin konining topilishi va uning bazasida sanoat ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilishi “Asr kashfiyoti” bo‘ldi. Asosini paxta xomashyosi yetishtirish tashkil etgan O‘zbekiston iqtisodiyotida yangi soha ya’ni konchilik sanoat tarmog‘i vujudga keldi. Garchi konlardan keladigan daromad iqtisodiy foyda bermasada bu jihat Respublika uchun o‘sha davr O‘zbekiston aholisi va rahbariyatining katta yutug‘i edi.

Qizilqum tabiiy mineral resurslarini, zaxiralarga boy konlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etilgan Navoiy kon-metallargiya kombinati qisqa muddatda nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyo kon sanoati ishlab chiqaruvchi yetakchilari qatoridan o‘rin oldi. Ishlab chiqarilgan mahsulot xalqaro maydonda e’tirof etildi va dunyo miqyosida sifat etoloniga ega bo‘ldi.

Qizilqum sanoat zonasi kompleksiga aylandi. Ishlab chiqarish quvvatlari kengaydi, yangi sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bu esa aholini ish bilan ta’minlash, xalq farovonligini oshirish imkonini yaratdi. Qizilqumda ishlab chiqarish, ijtimoiy va transport tuzilmalari sahroning yuzlab kvadrat kilometr maydonini egalladi. Aholi istiqomat qilishi va mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun qisqa fursatlarda murakkab tabiiy va iqlim sharoitlariga qaramay Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod shaharlari qad ko‘tardi. Bu shaharlarning har birida zamonaviy uy-joylar, maktab, o‘quv markazlari va muassasalari, madaniyat saroylari va klublar, tibbiyot maskanlari kabi ijtimoiy obyektlar foydalanishga topshirildi va aholining hayot kechirishlari uchun munosib turmush sharoitlari yaratildi.

Shaharlar mamlakat va uning ayrim hududlarida sanoat tarmoqlarini va umuman, xalq xo‘jaligi turli sohalarini vujudga keltirish hamda ularni taraqqiy ettirishda muhim rol o‘ynadi. Navoiy viloyatining olis cho‘l hududlarida yangi tashkil topgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari yildan-yilga ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlana bordi va mamlakatning qudratli sanoat markazlariga aylandi. Bunday tez rivojlanish bu kabi shaharlarning tuman va viloyatning ma’muriy markaz sifatidagi faoliyatiga zamin hozirladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Раззаков Ф. Шараф Рашидов: жизнь и судьба. – Ташкент: ИПТД «Узбекистан», 2020. – Б 282.

2. O‘zbekiston milliy arxivi M-69-fond 17-ro‘yxat, 9-yig‘majild 42- varaq.

3. O‘zbekiston milliy arxivi M-20-fond 21-ro‘yxat, 74-yig‘majild, 27- varaq.

4. Кучерский Н.И. Золото Кызилкумов. - Ташкент: Шарк, 1998. – С 11

5. Санақулов Қ., Раупов Х., Садриддинов Н. Янгиланаётган Ўзбекистон: Навоий кон-металлургия комбинатининг янги тарихи. – Тошкент: “SANHOF”, 2021. – Б 16.

6. Бунёдкорлик тимсоли. Китоб-альбом /лойиҳа раҳбари: Санақулов Қ. – Т: “SHARQ”, 2016. – Б.23.

7. Бердников Е.А., Шеметов П.А., Бычков В.Н. Годы и люди Мурунтау.- Ташкент: Мир экономики и права, 1998. – С.5.; Кучерский Н.И. Флагман индустрии независимого Узбекистана. -Ташкент: Шарк, 1997. – С.7

8. Навоий вилояти давлат архиви. 204-фонд, 1-рўйхат, 53-сақлов бирлиги, 12 - варақ.

9. Бадов В., Мальгин О., Рахматуллаев О. Золото Кызилкумов. – Москва: Русский паритет, 1999. – С.24.
10. Иноятов С. ва бошқ. Навоий саҳро бағридаги мўжиза шаҳар.... – Б.78.
Gareth M. Thomas Gold of Central Asia: The Kyzylkum Perspective London: Mining Journal Books, 2018. B 31
11. Санақулов Қ.С. Янги истиқболлар сари. Тошкент: “Машхур пресс”, 2018. – Б 14.
12. Р.Сулаймонов, Р.Ҳаедаров, С.Иноятов ва бошқалар. Navoiy. O‘tmishi qadim, kelajagi nurli diyor. Китоб албом. – Тошкент: “Маънавият”. – В 95.
13. O‘zbekiston milliy arxivi M-37-fond, 11-ro‘yxat, 21-yig‘majild, 8- varaq.
14. Quvondiq Sanaqulov salmoqli odim. //Do‘stlik bayrog‘i, Navoiy 2023 yil 18-may.
15. НКМК АЖ жорий архив материаллари. 2022-йил 13-йиғма жилд 17- варақ.
16. https://lex.uz/ru/docs/-5933941 Murojaat vaqti 2023-yil 15-avgust.
17. https://lex.uz/docs/-3238357 Murojaat vaqti 2023-yil 15-avgust
18. Sanaqulov Q. Yangi O‘zbekiston islohotlarga daxldorlik va mas’uliyat. – Navoiy, 2020. – B 5.
19.https://www.ngmk.uz/uploads/photo/aboutngmk/infos/2021%20GRI%20rus.pdf Murojaat vaqti 2024-yil 15-may.
20. https://lex.uz/docs/4755119 Murojaat vaqti 2025-yil 30-aprel.
21.https://world-nuclear.org/information-library/country-profiles/countries-t-z/uzbekistan.aspx Murojaat vaqti 2023-yil 28-avgust.
22. Учкудук судьба моя. 40 летию НГМК и города Учкудук – посвящается...Книга-альбом. – Учкудуқ, 1998. – С.24.
23. Навоийский горно-металлургичесий комбинат. История создания и развития. – Ташкент: ИПАК «Шарк», 2002. – С.11.
24. Петрухин.Н. Исотрия уранодобычи. – Москва: АРМЗ РОСАТОМ, 2020. – С.184.
25. Файзуллаев Д. Қизилқум урани-янги Ўзбекистон равнақи йўлида // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси, 2024/3-4.-Б.15.
26. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон Либерал-демократик партиясидан номзод Шавкат Мирзёевннинг Навоий вилояти сайловчилари билан учрашувдаги нутқи //Дўстлик байроғи 2023 йил 22 июнь.
27. http://lex.uz//docs/-6110931 Murojaat vaqti 2023-yil 31-iyul.
28. Исламов Б. “Навоийуран” – мамлакатимиз иқтисодиёти ривожига катта ҳисса қўшаётган корхона // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси, 2024/3-4.-Б.8.
29. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi tahliliy jurnal 2024-yil 3-4-son. 8-bet
30. Санакулов К.С., Воробьев А.Е., Норов Ю.Д. Начало промышленного применения нанотехнологий в недропользовании. –Ташкент: Фан, 2017. – 96 стр.